



Umr – saboq



Tunda osmonga boqib, minglab yulduzlarning chaq nab turgani, Oyning samoda ohista suzib yurganini soatlab tomosha qilgan yosh G'afurjonning qalbida tabiat hodisalariga qiziqish uyg'onib, uni tafakkur qilishga undagan, ilm cho'qqilari sari yo'naltirgan bo'lsa, ajabmas. Kamalakning barcha ranglarini o'zida jam qilgan Quyosh chiqayotganida nurlarining sinishi natijasida osmonning moviy rangda bo'lishi, botayotganida qizargan shafaqning xuddi yonayotgandek yal-yal tovlanishi uning tabiat hodisalariga bo'lgan qiziqishini yanada orttirgandirki, bolaligidan fizik bo'lishga ahd qildi.



Professor qizlarning professor otasi

yoki ma'rifatga baxshida umr

Ayniqsa, atom bombasining yaratilishi, fazoga kosmik kemalarning uchirishi uni yurtimizda yetishib chiqqan, fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan Ahmad al-Farg'oniy, Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug'bek kabi fizik olimlarning tajribalari, kashfiyotlari bitilgan risolalarini, kitoblarni qo'ldan qo'ymay mutolaa qilishga chorladi.

Hayotda o'z qadrini topgan, yuqori martaba, katta yutuqlarga erishgan insonlar haqida so'z ketganda, ko'z o'ngimizda diyonatli qalb sohibi, salohiyatli rahbar – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, kimyo fanlari doktori, professor G'afurjon Muhammedov siymosi gavdalanaadi. Uning hayot yo'li yosh zamondoshlarimiz uchun o'ziga xos ibrat maktabi ekaniga guvoh bo'lamiz.

Maktabni a'lo baholarga bitirgan o'spirin yigit maqsadiga erishish uchun Toshkent davlat universitetining fizika fakultetiga o'qishga kirdi. Oliygo'hnini bitirib, yarim o'tkazgichlar fizikasi mutaxassisligiga ega bo'ldi. So'ng Moskvadagi L.Karpov nomli fizika-kimyo ilmiy-tekshirish institutida ilmiy ish boshladi. Ushbu sohaning sir-sinoatlarini o'rganib, o'z ustida tinimsiz izlandi. Bu jonsaraklik, mehnat-sevarlik bejiz ketmadi, albatta. Nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi.

Dastlabki mehnat faoliyatini 1975-yili Toshkent davlat universitetida radiofizika kafedrasida muhandisi sifatida boshlagan yosh olim keyinchalik Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari institutida ishlay boshladi. O'sha kezlari talabalarga fizika fanidan dars berdi. Ustozning saboqlaridan men ham bahramand bo'lganimdan faxr hissini tuyaman. Umr oqar daryo deyдилar. Oradan shuncha yil o'tib ketgan bo'lishiga qaramay, ustozimizning kamtarligi, samimiyligi, ochiqko'ngilliligi hamon o'sha-o'sha – o'zgarmagan.

Ilm olishni igna bilan quduq qazishga o'xshatishadi. Bu hikmat zahirida olam-olam ma'no bor. Olim bo'lish oson emas. Buning uchun inson o'z kasbining fidokori bo'lib, el koriga yaraydigan kashfiyotlar yaratishi zarur. Ayniqsa, fizika shunday fanki, bu sohada erishilgan har qanday yangilik insoniyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan tarmoqlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

G'afurjon Muhammedov Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari institutida uzoq yillar davomida ishlash bilan birga ilmiy izlanishlarini davom ettirdi. O'z sohasining bilimdon, yetuk vakili bo'lib yetishish maqsadida polimerlar fizikasi va

kimyosi bilan shug'ullanib, Moskva davlat universiteti olimlari bilan birgalikda polikompleks va kompozitsion materiallar yaratish ustida ish olib bordi. Uzoqni oldindan ko'ra bilgan ixtirochi olim ilmiy loyihalari bilan qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Suvni iqtisod qilib, tuproqni shamol va suv eroziyasidan himoya qiladigan modda yaratishga erishdi va doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Hikoyamiz qahramoni, hatto mudhish Chernobil falokatidan keyin V.Kurchatov nomidagi ilmiy-tekshirish instituti laboratoriya xodimlari bilan hamkorlikda nurlangan hududda bir oy safarda bo'lib, zararlangan radioaktiv qum zarrachalarini ko'chishdan, siljishdan saqlash ustida tajriba olib bordi. Natijada kutilgan maqsadga erishildi. Shuningdek, polikompleks va kompozitsion materiallar qishloq xo'jaligida ham katta samara bera boshladi. Xomashyo sepilgan joyda namlikni saqlash, yerni qatqaloqlikdan asrash, hosilni erta yetishtirish va 5–10 foizga oshirish xususiyatiga ega bo'lgan moddalar paxtachilik sohasida keng qo'llanila boshlandi. Suv xo'jaligida sug'oriladigan suvni iqtisod qilish va chuqur yerosti filtratsiyasini kamaytirishda yaxshi ko'rsatkichlarga erishildi.

Umrini ma'rifatga bag'ishlagan fan arbobi bir qator oliy ta'lim muassasalarida – Jizzax davlat pedagogika universiteti va Toshkent davlat pedagogika universiteti, so'ng O'zbekiston Milliy universitetida rektor lavozimlarida ishladi. 2010–2014-yillarda Oliy Majlis Senati a'zosi sifatida faoliyat yuritdi. Shu bilan birga, fizika-kimyo sohasida ko'plab shogirdlarga ustozlik qildi, rahbarligi ostida 10 nafar fan doktori, 15 nafar fan nomzodi yetishib chiqdi va ilmiy natijalari bilan yurtimizning ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

Ayni vaqtda Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori lavozimida ishlab kelayotgan ustoz tarbiya va ta'lim uyg'unligini ta'minlash borasida ibratli ishlarni amalga oshirmoqda. Globallashuv davrida ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish yangicha yondashuvlarni talab qilayotgani bois birinchi navbatda ilm-fan maskanining o'quv-moddiy bazasi yaxshilandi. Universitetda innovatsion pedagogika klasteri asosida o'quv-ilmiy jarayoni yo'lga qo'yilib, o'quv xonalari va o'qitish usullari yil sayin boyitilmoqda. Pedagogik xodimlar, tashkilotlar bilan ta'lim-tarbiya masalalarini tashkil qilish bo'yicha hamkorlik ishlari davom etmoqda. Bunda ishtirok etayotgan tashkilotlar,

pedagogik xodimlar bir-birini to'ldirish va nazorat qilish imkoniyatiga ega ekanini e'tirofga loyiq.

Rektorning kuyunchakligi, tashabbuskorligi tufayli universitetga fan nomzodlari, professor-o'qituvchilar ishga taklif etilib, salohiyatli jamoa shakllantirilmoqda. Individual yondashuv asosida xalqaro o'qituvchilarni tayyorlash, qo'sh mutaxassislarni tayyorlash ishlari olib borilayotgani erishilgan yutuqlarning yana bir ko'rinishidir.

– Hozirgi kunda universitetimizni bitirgan talabalarga chet ellardan ham ish bo'yicha talablar tushmoqda, – deydi ustoz. – Kelasi yilda ikki nafar talabamizning Birlashgan Arab Amirliklariga ishga ketishi kutilmoqda. Shu paytgacha 15 nafar talabamiz xalqaro o'qituvchi Kembrij sertifikatiga ega bo'ldi. Yuzdan ortiq talabalar qo'sh mutaxassislik diplomi va sertifikatini olishdi. Masalan, o'qituvchilar fizika, matematika, biologiya bilan kimyo, boshlang'ich ta'lim bilan chizmachilik yoki musiqa ta'limidan birvarakayiga dars berishlari mumkin. Bu yosh kadrlarning nufuzini oshiribgina qolmay, balki moddiy jihatdan himoya qilgan holda, aniq ish joyini ham ta'minlaydi.

Bundan tashqari, universitetda o'zlari-ning innovatsion loyihalari va g'oyalariga ega bo'lgan iqtidorli yoshlar akademiyasi faoliyat yuritmoqda. Individual yondashuv asosida har bir professor, o'qituvchiga 5 nafardan 10 nafargacha talaba birkidirilgan bo'lib, ular shu o'qituvchilar rahbarligida ilmiy ish bilan shug'ullanishmoqda. Shu bilan birga, ularning tarbiyasi o'qituvchilari nazorati ostida bo'ladi. Bizning vazifamiz bu yo'nalishda turli uslublarini izlab topishdan iborat.

Suhbatimiz davomida “Bir inson erishishi mumkin bo'lgan barcha yutuqlarga erishibsin, yetisholmagan armoningiz bormi?”, – degan savolimga:

– Armonim yo'q. Fan sohasida ham, oilam borasida ham qilishim mumkin bo'lgan hamma ishni qildim, – deya javob berdi domla faxr bilan.

Qariyb yarim asrdan buyon pedagogika sohasida mehnat qilayotgan G'afurjon Muhammedovning erishgan yutuqlari, mehnatlari munosib baholanib, “O'zbekiston Respublikasi fan arbobi” unvoni, “Mehnat shuhrati” ordeni, “O'zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi” esdalik nishoni va “Oliy ta'lim a'lochisi” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Ko'pchilikka ibrat bo'lib yashash har kimga ham nasib etavermaydi. Ayniqsa, farzandlar tarbiyasida. Turmush o'rtog'i Lola opa Muhammedova bilan 47 yildan

buyon baxtli hayot kechirib kelayotgan G'afurjon Muhammedov farzandlari tarbiyasiga katta e'tibor qaratdi. To'rt nafar farzandni voyaga yetkazib, ilmiy qilishdi.

Aytishlaricha, Misrda besh yuz yil omborda saqlangan bug'doyni yerga sepib, parvarishlaganda, o'z davriga nisbatan besh barobar ko'p hosil bergan ekan. Agar bug'doyni iste'dodga mengzasak, uning tomir surishi – haq gap. Professor otaning farzandlarida ham ana shunday iste'dodni yaqqol ko'rish mumkin. Gap shundaki, olimning qizlari ota izidan borib turli sohalarida – to'ng'ich qizi Lobar pedagogika fanlari doktori, professor, ikkinchi qizi Dilbar – psixologiya fanlari doktori, professor, uchinchi qizi Muyassar – tibbiyot fanlari doktori, professor va kenja qizi Ziyoda – texnika fanlari doktori, professor unvoniga erishdi. Fizika tili bilan aytganda, professorlar sulolasining bilimga “tortilish kuchi” yuksak darajada.

– Yoshlikka qaytishni istarmidingiz? – degan navbatdagi savolimga:

– Albatta, istar edim. Yoshlik bu – orzu, intilish, ishonch. Agar mo'jiza yuz berib, yoshligimga qaytib qolsam, hozirgi yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlardan to'liq foydalangan, ayniqsa, til o'rganagan, kompyuter texnikalarini mukammal o'zlashtirgan bo'lardim. Shu o'rinda navqiron avlod vakillariga maslahatim shuki, bilim olishning ayni pallasi yoshlikdir. Yurtimizda yaratilayotgan imtiyoz-u imkoniyatlardan to'g'ri va manfaatli foydalanishsin, kuch-quvvati va imkoniyatlarini Vatan ravnaqi, yurt farovonligi uchun sarf etishsin. Biz mana shunday yoshlarni kamol toptirish yo'lida xizmat qilmoqdamiz. Zero, yurtimiz ilm-fanning o'chog'i, allomalar Vatani ekanini ertamiz egalari, kelajagimiz davomchilari unutmazliklari kerak.

Qutlug' 75 yoshini farzand-u nabilari, do'st-u birodarlari davrasida yorug' yuz, toza iymon bilan qarshi olayotgan, hamon xalq xizmatida bo'lish tashvishi bilan yashayotgan G'afurjon Muhammedovni yubileyi bilan samimiy qutlar ekanmiz, mazmunli suhbat uchun minnatdorchilik bildiramiz. Ularga sihat-salomatlik va uzoq umr tilab qolamiz.

Atomdan to Quyosh tizimigacha bo'lgan cheksiz koinotda g'ayritabiiy bir harakat bor. Atom atrofida bir soniyada yuz ming kilometr tezlik bilan harakat qiladigan elektronlar ham shunday xususiyatga ega. Quyosh atrofida katta sur'atda aylanib yuruvchi sayyoralarda ham harakatlanishga undaydigan sir yashirin. Yomg'ir shavq bilan yog'adi, gullar ochiladi. Shunday ekan, biz insonlar ham hamisha bilim olishga intilishimiz, izlanishimiz, o'zimizni qaysi sohaga bag'ishlasak, shu doirada shakllanishimiz lozim. Bu ustozim G'afurjon Muhammedovning bosib o'tgan izlariga nazar solib chiqargan xulosam.

Saodat MUSAYEVA,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi
a'zosi